



Tadqiqot **uz**

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**2021**

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



**31 MAY  
№28**

**CONFERENCES.UZ**

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ  
9-ҚИСМ**

---

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ  
28-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ  
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"  
ЧАСТЬ-9**

---

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN  
28-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE  
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH IN UZBEKISTAN"  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

## "Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 28-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 май 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 13 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

### **1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

### **2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

### **3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

### **4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

### **5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

### **6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

### **7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ  
ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Абдурашидова Нигора Алишеровна</b> БЕНЧМАРКИНГДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ	7
<b>2. Karimov egamberdi boboqul o'g'li</b> TURIZM TADBIRLARINING MAMLAKAT TURIZMINI RIVOJLANТИRISHDAGI AHAMIYATI	9
<b>3. Shokirov Odilbek Ulug'bek o'g'li</b> MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH KOMPLEKS TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	11



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### БЕНЧМАРКИНГДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ ЖИҲАТЛАРИ

**Абдурашидова Нигора Алишеровна**

Тошкент давлат иқтисодиёт

университети таянч докторант

Телефон: +998903189188

e-mail: ms.nigora1981@mail.ru

**Аннотация:** Ушбу мақолада бенчмаркингнинг назарий ва амалий жиҳатлари, корхоналарниң рақобатбардошлигини ошириш учун бенчмаркингдан фойдаланиш зарурлигини асослайди. Рақобатчиларни ўрганишда таҳлилчиларниң қайси ҳаракатлари муваффақиятга олиб келганлиги ҳақида аниқ хулоса чиқара оладилар.

**Калит сўзлар:** бенчмаркинг, автомобиль саноати, рақобатбардошлиқ, маркетинг, саноат жосуслиги, ички бенчмаркинг.

Бозорга илгарироқ кириб бориш натижасида ҳозирги пайтда устунлик қилаётган маркетинг технологиялари ҳисобланган директмаркетинг, “партизанча” маркетинг (guerilla), макромаркетинг, мегамаркетинг, “яшил” маркетинг, фаол маркетинг каби маркетинг стратегияларидан фойдаланиш эса автомобиль саноати корхоналарининг рақобатда нафақат устунликка эришиш, балки мамлакатлар тараққиётини таъминлашнинг муҳим йўналишлари сифатида ўрганилган. Ишлаб чиқариш корхоналарида маркетинг стратегиялари назарияларини ўрганиш ва маркетинг стратегиялари турларини таснифлашга ёндашувлар Ўзбекистонда ишлаб чиқарувчи корхоналарида улардан фойдаланишнинг ўзига хосликларини белгилаш ва тегишли чораларни ишлаб чиқиш имконини беради. Ишлаб чиқариш корхоналарида стратегик моделларни қўллашда бир қатор нокулайликлар келиб чиқмоқда. Ҳақиқатдан ҳам чет элдан олинган тажрибалар қанчалик яшовчан?

Бенчмаркингнинг японча чехраси. Бир қарагандан, бенчмаркинг ва саноат жосуслиги - бу битта нарса. Ҳақиқатда эса, ушбу икки усул ўртасидаги фарқ тамойилларга асосланган. Японларни бенчмаркингнинг асосчилари, деб ҳисоблашади, улар бошқаларнинг ютуқларидан бенуқсон нусха кўчиришни ўрганишди. Улар Европа ва Америка товарлари ва хизматларини синчковлик билан ўрганиб, уларнинг кучли ва кучсиз томонларини аниқлашган, кейин эса шунга ўхашини арzonроқ нархда чиқаришган. Шу билан бирга, японлар технология ва ноу-хауларни бизнеснинг битта соҳасидан иккинчисида муваффақиятли қўллашган<sup>1</sup>.

Фарбда бенчмаркингни 1970-йилларнинг охирида фаол қўллай бошлашди. Бу вақтда Япония корхоналари Америка корхоналарини сиқиб чиқараётган эдилар. Xerox компанияси нусха кўчириш аппаратлари бозорида ўз улушкини кескин ёқатаётганлиги сабабини қидира бошлади<sup>2</sup>. Хусусан, Xerox Японияни Fuji компанияси тажрибасини ўрганиб чиқди. Xerox раҳбарияти нафақат техник ютуқларни, балки менежмент соҳасида турли компаниялар, жумладан бизнеснинг бошқа соҳаларидан ҳам, жорий қилинган янгиликларни ўрганиш учун ҳатто маълум муддатга Японияга кўчиб ўтишди. Ушбу тажрибани ўрганиш билан Xerox харажатларни камайтириш, меҳнатни ишлаб чиқарувчанлигини оширишга

<sup>1</sup> М.Ю.Исаков, Д.Ю.Рўзиева. Корхоналарни ривожлантириш стратегияси. Ўқув қўлланма., Т.- Иқтисодиёт, 2019. – 404 бет.

<sup>2</sup> Князев Е.А., Евдокимова Я.Ш. Бенчмаркинг для вузов: Учебно-методическое пособие. - М.: Университетская книга, Логос, 2006. – 208с.



эришди ва ҳ.к. Шундан бери бенчмаркинг Хегох бизнес-стратегиясининг бир қисми бўлиб қолди. Япония ва АҚШ ва бошқа давлатларда бенчмаркинг дастурлари давлат томонидан риворжлантирилади. У ерда бенчмаркинг борасида ҳамкорларни қидириш учун маҳсус яратилган ўзига хос «саноат танишуви бюоролари» (globalbenchmarking.com, benchnet.com ва бошқалар) иш юритади. Ушбу шаклдаги тажриба алмашишдан умумий мамлакат иқтисодиёти ютуқка эришади, деб ҳисобланади.

Етакчи компаниялар учун ўзи ҳақида ахборотни олишдан нима фойда бор? Кўпчилик чет эл компаниялари намуна компанияси сифатида танилиш нуфузли деб билишади. Айниқса, бу уларнинг инвестицион жозибадорлигини оширади ва ҳар хил даражаларда ўз манфаатларини олға суришга ёрдам беради. Японлар эса, агар компания бошқаларни ўқитса, демак, ўзи ҳам ривожланади деган фикирда. Бенчмаркинг ёрдамида корхоналар ўз рақобатдошлигини оширишлари мумкин.

Бенчмаркинг - бу битта корхона фаолияти самарадорлигининг бошқа, муваффақиятлироқ корхоналар кўрсаткичлари билан қиёсий таҳлил механизмидир.

Бенчмаркинг корхонанинг барча фаолият соҳаларида қўлланилади - логистикада, маркетингда, ходимларни бошқаришда ва ҳ.к. Bain & Co консалтинг компанияси маълумотларига қараганда, бенчмаркинг йирик ҳалқаро корпорацияларда бизнесни бошқариш усулларининг энг кўп тарқалган учталигига кирап экан. Бундай нисбатан тез ва камхаражатли такомиллаштиришга ёрдам беради.

Машхурликнинг сабаби оддий - бенчмаркинг бизнес – жараёнларини назарий жиҳатдан, маълумот алмашинуви бўлиши мумкин. Лекин, амалда бу камдан кам учрайди. Рақобатчиларни ўрганишда таҳлилчидан асосий аҳамиятга эга улар рақобатчиларнинг нархлари, маҳсус таклифлари ва бошқа ҳужжатларини ўрганиб чиқишади. Кўпчилик компаниялар истеъмолчилар орасида сўров ўтказишади: рақобатчилар товар ва хизматлари, уларнинг кучли ва кучсиз томонлари ҳақида фикрларини билиб олишади. Тажрибали таҳлилчилар ушбу маълумот асосида рақобатчиларнинг қайси ҳаракатлари муваффақиятга олиб келганлиги ҳақида аник хулоса чиқара оладилар<sup>1</sup>.

Ички бенчмаркинг - битта ташкилотда турли бўлинмалар фаолияти самарадорлигини таққослашдир, масалан, сотишлар ва харидлар бўлимлари. Холдингларда битта вазифани турли корхоналарда таққосласа бўлади. Ички бенчмаркингни ҳалқаро корпорациялар янги бозорга чиқаётганда худудлар ўртасидаги ўхшашликни ҳисобга олишади ва бошқа давлатларда текшириб кўрилган усуллардан фойдаланишади.

Фойдали тажрибани бошқа соҳаларда ишлаётган корхоналар ҳам ўзлаштиrsa бўлади. Бенчмаркингнинг ушбу тури умумий деб номланади. Рақобат бенчмаркингидан фарқли ўлароқ, бунда бирорта корхона билан келишиш ва «расмий ташриф» буюриш имконияти кўпроқ.

Ички бенчмаркинг унча кўп тарқамалган - хамма менежер ҳам кўзи олдидағи ижобий тажрибани кўра олмайди. Аммо шундай солиштирма таҳлил сезиларли фойда олиб келади. Бенчмаркинг борасида ҳамкорни топишнинг яна битта усули - уни икки томонлама фойда билан қизиқтиришдир

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. М.Ю.Исаков, Д.Ю.Рўзиева. Корхоналарни ривожлантириш стратегияси. Ўқув қўлланма., Т.- Иқтисодиёт, 2019. – 404 бет.
2. Агеева Д.Р. Бенчмаркинг как инструмент обеспечения конкурентоспособности предприятия. Журнал Стратегический менеджмент. Российское предпринимательство, 2007, № 10 (2)
3. Князев Е.А., Евдокимова Я.Ш. Бенчмаркинг для вузов: Учебно-методическое пособие. М.: Университетская книга, Логос, 2006. - 30 с.
4. <https://uzavtosanoat.uz/>

<sup>1</sup> Агеева Д.Р. Бенчмаркинг как инструмент обеспечения конкурентоспособности предприятия. Журнал Стратегический менеджмент. Российское предпринимательство, 2007, № 10 (2)



## TURIZM TADBIRLARINING MAMLAKAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

**Karimov egamberdi boboqul o'g'li**

Buxoro davlat universiteti  
Iqtisodiyot va turizm fakulteti magistranti  
egamberdi.karimov@bk.ru

**Annotatsiya:** maqolada turizm sohasining rivojlantirishni samarali usullari shuningdek ommaviy tadbirlarning mamalakat turizm sohasining rivojlantirishdagi ahamiyati xususida fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, sayyoohlar, Event turizmi, ommaviy tadbirlar, festivallar, biznes aloqalar, investitsiyalar.

Bugungi kunda turizm barqaror o'sish dinamikasi va sayyoohlik bozorining sezilarli ixtisoslashuvi bilan kuchli sanoatga aylandi. Turizm milliy boylik, korporativ daromad va ishchi o'rinalining shubhasiz generatoridir.

So'nggi yillarda, ommaviy tadbirlar "Event" turizmga e'tibor oshdi. Ko'pgina mamlakatlarda ichki iqtisodiyotni shakllantirish, qo'shimcha ish o'rinnari yaratish va mavsumiy aholi bandligini ta'minlashda muhim va ba'zan ustun o'rinn tutadigan, ichki savdoni faollashtiradigan turizm yo'nalihsidan biri aynan shudir. O'tgan yillar mobaynida "Event" turizmi ko'plab muxlislarni jalg qildi. Ommaviy tadbirlar, ekskursiyalari tomondan mashhur sayyoohlik destinatsiyalariga qarash uchun noyob imkoniyatni taqdim etadi.

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakat bilan standart tanishish zamonaviy sayyoohlar uchun yetarli emas, ular safarlaridan ko'proq narsani olishni istaydilar. Bu holatda sayyoohlar tashrif buyurgan ommaviy tadbirlar integratsiya jarayonining katalizatori hisoblanib, insoniyat tarixi davomida yaratgan qadriyatlarni ommalashtirish va milliy o'zlikni anglash, jamiyatni mustahkamlashda muhim rol o'yndaydi. Har bir hudud bir hodisa doirasida jamiyatning mafkuraviy, madaniy, memorial qadriyatlarini ochib beradi, so'ngra tadbir milliy merosni asrab-avaylash, yosh avlodni tarbiyalash, o'zaro anglashuv va hamkorlikka erishish, turli xalqlar madaniyatini boyitishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Ommaviy tadbirlar tashkil etishdan turli maqsadlarga erishishi mumkin:

- mahalliy aholi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish (shahar bayramlari, karnavallar va yarmarkalar);
- tarixiy va madaniy merosni saqlash va ommalashtirish;
- hududni turizm salohiyatini yoritish va yangi turistik manzilga aylantirish (mintaqa, shaharga, turistik destinatsiyaga yoki turistik klasterga e'tiborni jalg qilish);
- biznes aloqalar va aloqalarni yo'lga qo'yish va rivojlantirish (biznes-forumlar, professional kongresslar);
- muhim sport tadbirlarini tashkil etish (Olimpiya o'yinlari, jahon yoki Yevropa championatlari);
- muhim sana va voqealarni nishonlash kabi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'muriy nuqtai nazardan hududni rivojlantirishga keng ko'lamlı investitsiyalar ommaviy tadbirlar bilan bog'liq bo'lgan taqdirda ancha sodda va samarali bo'ladi.

Tadbirlarni tashkil etishda turizmnинг ahamiyati. Ushbu ikki tushunchalar bir-biri bilan bog'liq faoliyat bo'lib, turizm asosan samarali tadbirlarni boshqarishga bog'liq. Misol uchun Niagara sharsharasi tashrif buyuradigan mashhur va taniqli joy. Biroq, tadbir rahbarlari Niagara daryosi havzasi bo'ylab sayohatlar va sayohatlarni tashkil qila boshlagach, sayyoohlarning asosiy oqimi boshlandi. Ushbu tadbirlar bu maqsad atrofida boshqa o'yin-kulgilarni rivojlantirishga olib keldi. Bu turizmda tadbirlarni boshqarishning ahamiyati juda muhim bo'lgan asosiy sababdir. Sayyoohlar nima uchun ular ma'lum bir joyga tashrif buyurishlari kerakligini tushunishlari kerak.

Turistik tadbirlarni boshqarish doimiy mijozlarning sodiqligini ta'minlaydi. Turli ijtimoiy tadbirlarni tashkil etish odamlar bilan muloqot qilish va yangi munosabatlarni yaratishga yordam beradi. Tadbirlarni boshqarish sayohatchilarga zerikmasdan vaqt o'tkazish uchun turli xil imkoniyatlar beradi. Turizmni tadbirlarni boshqarishga bog'liq hisoblanadi.

Turizm-jamoat tadbirlarini o'tkazish mumkin bo'lgan maydon yoki sanoatdir. Yuqoridaqgi barcha misollar turizm uchun tadbirlarni boshqarishning muhimligini ko'rsatadi. Biroq, turizmning



o‘zi ijtimoiy faoliyat uchun juda muhimdir. Turizmni rivojlantirish va yangi yo‘nalishlarni joriy etish tadbirlarni boshqarishni rivojlantirish uchun katta istiqbollarni ochib beradi. Festivallar, ko‘ngilochar tadbirlar va h.k. kabi ijtimoiy tadbirlarning aksariyati yangi tajribalar va his-tuyg‘ularni izlash uchun butun dunyo bo‘ylab sayohat qilayotgan sayyoohlар uchun imkon yaratdi. Tabiiyki, turizm va tadbirlarni boshqarish turizm uchun jozibador yo‘nalishni yaratish uchun alohida-alohida mavjud bo‘lishi mumkin, batafsil rivojlanish rejalar zarur. Ushbu rejalar sayyoohlар salohiyatini to‘liq amalga oshirish uchun ijtimoiy tadbirlarni rejalahtirishga qaratilgan bo‘lishi kerak. Tadbirlarni boshqarish-bu jamiyat uchun turli xil tadbirlarni ishlab chiqish va rejalahtirishni o‘z ichiga olgan faoliyatdir. Tadbirlarni boshqarishning sayyoohlар faoliyatiga samarali integratsiyalashuvi muvaffaqiyatga erishadi va ko‘plab mijozlarni o‘z manziliga jalg qiladi. Mamlakatimizda sayyoohlар turizmini rivojlantirish istiqbollari mavjudligiga qaramasdan, O‘zbekiston hududlarida ommaviy tadbir turizmning rivojlanishiga to‘sqinlik qiluvchi bir qator omillar mavjud. Bunga quyidagilar kiradi: kam rivojlangan sayyoohlар infratuzilmasi, voqealar sohasidagi malakali kadrlar yetishmasligi, tadbirlar taqvimini ishlab chiqishga yetarlicha e’tibor berilmasligi, mahalliy aholining kam biznes va investitsion faolligi, shuningdek, tur mahsulotlarini ilgari surishning samarasiz tizimi.

Turistik infratuzilmalar o‘z tarkibiga ovqatlanish korxonalar, mehmonxonalar, aloqa yo‘llari yig‘indisi (yo‘llar, shox yo‘llar, aeroportlar, kemalar to‘xtaydigan joylar h.k.), kommunikatsiyalar (suv quvurlari, elektr tarmoqlari, markaziy isitish korxonalar, ogova suv tarmoqlari), telefon, aloqa, (pochta bo‘limlari), huquqni himoya qilish, jamoat - tartibini saqlovchi idoralar, tibbiyot tashkilotlari, maishiy xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, do‘konlar, sport inshoatlarini birlashtiradi va turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar bilan chambarchas holda bog‘langandir. Yil davomida moddiy va nomoddiy madaniy meros elementlari asosida tadbir turizmining tashkil etilishi sayyoohlarning destinatsiyaga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi va uning takroriy tashriflari ulushini oshiradi.

Ta’kidlash joizki, tadbir turizmining rivojlanishi mahalliy madaniy an‘analar, urf-odatlar, xalq ijodiyoti rivojiga faol hissa qo‘shmoqda. Turli mamlakatlar hukumatlari uni qo‘llab- quvvatlash siyosatini olib boradilar, chunki voqealari turizmi mintaqasi va butun mamlakatning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va dunyodagi mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, turizm jahon integratsiyasi jarayonlarini qo‘llab-quvvatlovchi muhim omil bo‘lib, fuqarolarning noyob merosi, boshqa mamlakatlarning merosi va madaniyati, har bir mamlakat, mintaqasi va xalqning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ongini kengaytirmoqda. Ommaviy tadbir turizmi, umuman, har qanday turizm kabi, o‘zaro tushunish vositasi rolini o‘ynaydi, zamonaviy jamiyatni birlashtirish va mustahkamlash vazifasini samarali hal qiladi, turli etnik, milliy, diniy va boshqa ijtimoiy guruhlarning bir-biriga nisbatan bag‘rikenglik munosabatini shakllantiradi.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi turizmni rivojlanish davlat qo‘mitasi <https://www.uzbektourism.uz>
2. Safarov B SH. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlanishning metodologik asoslari. – T.: 2016
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlanishiga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-sonli Farmoni. 2019-yil 5-yanvar
4. Baltabayev M R., Tuxliyev I S., Safarov B Sh., Abduhamidov A. Turizm:nazariya va amaliyot. – T.: 2018



## MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH KOMPLEKS TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Shokirov Odilbek Ulug'bek o'g'li  
Mo'minov Abdulhamid Abduvaxob o'g'li  
Andijon mashinasozlik instituti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimini takomillashtirish, mahsulot sifatiga qo'yilgan talablar va unign ahamiyati tahlil etilgan.

**Kalit so'zlar:** mahsulot sifati, talablar, sifatni boshqarish, kompleks tizim.

Ma'lumki, mahsulot sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar mahsulot yoki xizmatga bo'lgan talablardan va iste'molchilarning talablaridan iborat bo'ladi. Shundan kelib chiqib sifatni boshqarish kompleks tizimi ushbu talablarni sifat faoliyati natijasini va uni nazorat qilish jarayonini ta'minlash zarur. Albatta o'tish joizki, boshqarish usullari va uslublari ming yillar davomida shakllanib va rivojlanib kelmoqda. Respublikamizda mustaqillik yillarda mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimining yangi tizimi yaratilmoqda. Sifatni nazorat qilish zaruriyati ob'ektni boshqarish-mahsulot sifatini boshqarishmahsulot sifatini ishlab chiqish, foydalanish yoki iste'mol qilishdan yetarli daromadni saqlab turish, mahsulot sifatini maqsadli ta'sir etuvchi sharoit va omillarni doimiy ravishda nazorat iborat bo'lib, ularga quyidagilar kirdi:

- Mahsulot sifatini nazorat qilish;
- Mahsulot sifatini baholash;
- Mahsulot sifatini boshqarish va unga tzimli yondashish bosqichlari;
- Davlatning vazifasi sifatida mahsuloti va unga ta'sir etuvchi omillar davlat standartlari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

Har qanday boshqarish uslubi asosida sifatni etxnik nazorat qilish va uni tashkil etish turadi. Korxonada asosiy vazifani boshqarishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan texnik nazorat bo'limi bajaradi (TNB). Sifat muommosining murakkabligi korxonaning sifat xizmatini tashkil etishda kompleks yondashuvni talab qiladi. Chunki bunda sifatni nazorat qilishning barcha bo'limlarini birlashtirish maqsadga muvofiq. Faqta shu asosda sifatni rag'batlantirish va tahlil qilishini ta'minlash mumkin. Sifatni nazorat qilish vazifasini amalga oshirishda o'lchov vositalaridan, electron va kompyuter qurilmalaridan faqat to'g'ri foydalanibgini qolmay, balki ularning holatini nazorat qilib borish zarurdir.

Sifatni boshqarish konsepsiysi (Total quality manajment TQM) – shundan iboratki, barcha sohalarda tadqiqot to mahsulotni sotguncha va undan keyin sifatni boshqarishda tizim va uslublarni qo'llash hisoblanadi. TQM konsepsiysi xalqaro tavsifga ega bo'lib, u mahsulot sifatini va korxonaning raqobatbardoshligini oshirishni samarali boshqarish maqsadida uslublar, vositalar, shakllarning umumiyligidir. TQM tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yangi mahsulotni tadqiq qilishdagi nazorat;
2. Mahsulot sifatini takomillashtirish va xom-ashyo materiallarining sifatini rejalashtirish;
3. Xom-ashyo va materiallarning korxonaga kirishdagi nazorati;
4. Tayyor mahsulot nazorati;
5. Mahsulot sifatini baholash;
6. Ishlab chiqarish jarayonini baholash;
7. Mahsulot sifati va ishlab chiqarish jarayoni nazorati;
8. Ayrim jarayonlar tahlili (mahsulot sifati sohasidagi maxsus tadqiqotlar);
9. Mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlardan foydalanish;
10. Mahsulot sifati haqida ma'lumot beruvchi uskunalar nazorati;
11. Sifatni ta'minlovchi uslublarga o'rgatish, kadrarl malakasini oshirish;
12. Kafolatlangan xizmat.

Sifatni umumboshqarish – bu nazariy qo'llanma emas, balki sifatni oshirish jarayonini boshqarish texnologiyasi 3 qismdan iborat:

1. Bazali tizim;
2. Texnik ta'minot tizimi;
3. Sifatning umumboshqaruvini rivojlantirish va takomillashtirish tizimi.

Korxonaga o'zaro bir-biriga bog'liq unsurlardan iborat tizim nuqtai nazaridan qarash zarur



tashkiliy unsurlari hamda tashkilotning tashqi muhit bir biriiga juda bog'liqligi tufayli muommolar ososn va tez hal etiladi. Boshqa tashkiliy muommolar kabi kelajakda unumdoorlikni oshirish muommosi ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Unumdoorlikka ham tashqi muhitning, ham tizim o'zgarish jarayonining turli omillari ta'sir etadi. Hozirgi paytda ko'pchilik tadbirkorlar darhol foyda olishga intilish noto'g'rilingini va uzoq istiqbolni hisobga olish zarurligini tushunib yetdilar. Unumdoorlikning istiqbolga mo'ljallangan kompleks rejalarini qisqa muddat bilan mustahkamlash zarur. Bu bosqich mahsulot sifatni takomillashtirishda tovarning raqobatbardoshligi darajasini oshirishga zaruriyat paydo bo'ladi. Tovarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish bozorni takomillashtirish, marketingni takomillashtirish, tovari takomillashtirish orqali erishiladi.

Jamoani ijtimoiy rivojlantirishning kompleks dasturi masalasi shu jumladan atrof-muhit ekologiyasi masalalari birinchi o'ringa chiqadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda dasturi masalasi, rahbar xodimlar vamutaxassislarining ma'suliyati ortadi. Bu ishlab chiqarish menejmentiga qator o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Kimpleks sifat ko'rsatkichlari esa ularning bir necha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Masalan, meva va sabzavotlarning tashqi ko'rinishi, ularning rangi, pishgan pishmaganligi, shakli, o'lchamlari, shikastlanganligi yoki shikastlanmaganligi kabi bir nech xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Mahsulotlarning sifat darajasini aniq ifodalash uchun kompleks sifat ko'rsatkichlarini aniqlash zarur. Mamlakatimizda sifatni boshqarishning kompleks tizimi tartibi va tarmoq taribi mavjud bo'lib, ular mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgandir.

**Adabiyotlar:**

1. Abduvaliev A.A., Latipov V.B., Umarov A.S., Alimov M.N., Boyko S.R., Xakimov O.SH., Xvan V.I. Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifat. O'quv qo'llanma. Toshkent, SMSITI, 2008 y. – 267
2. Ismatullaev P.R., Maksudov A.N., Abdullaev A.X., Axmedov B.M., A'zamov A.A. Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish. «Uzbekiston» Toshkent-2001y.
3. Ismatullaev P.R., Qodirova SH.A.. Metrologiya asoslari. «Uzbekiston» Toshkent-2012y.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"  
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 28-КҮП ТАРМОҚЛИ  
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

**(9-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳиҳ:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.05.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000